

TILSHUNOSLIKDA MATN TUSHUNCHASI

Qodirova Nasiba Xalilovna

Buxoro shahar 17-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos hodisa ekanligi, tilshunoslik tarixida uni o'rganishga bo'lgan turlicha yondashuvlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, matn, adabiyot, badiiy asar, vazifa, badiiy ifoda vositalari, nutq, axborot.

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos hodisa hisoblanadi. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni o'rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug'ullangan V. Vinogradov o'zining "Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari" nomli ma'ruzasida badiiy adabiyot tili to'g'risida gap ketganda, "til" so'zi ikki xil ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi, ya'ni: 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi "nutq" yoki "matn" (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil materiali) ma'nosida; 2) "san'at tili", badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida.

Umumxalq nutqidagi barcha birliklar badiiy tilda u yoki bu darajada estetik ahamiyat kasb etadi. Eslatib o'tish lozimki, badiiy asar matni tilning estetik funksiyasining asosiy yuzaga chiqish o'rni bo'lib kelar ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida o'rganib bo'lmaydi. Mazkur vazifani har tomonlama mukammal o'rganish uchun adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va til tarixi, uslubiyat, etimologiya, leksikologiya, semasiologiya, grammatika kabi tilshunoslik sohalari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Binobarin, tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab masaladir.

Matn tilshunosligi fani aynan badiiy matnni o'rganish, tilning estetik vazifasini

tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bir sohasidir. Mazkur soha bo'yicha ham o'zbek tilshunosligida qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. E. Qilichev o'zining "Matnning lingvistik tahlili" qo'llanmasida matn ko'rinishlari, badiiy matn va uni lisoniy tahlil qilish xususida so'z yuritadi. Tilshunos olim M. Yo'ldashevning "Badiiy matn va uni lingvopoetik tahlili asoslari" nomli qo'llanmasida badiiy matn va uning lisoniy xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.¹

Matn nutqiy jarayon mahsuli bo'lib, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lган, adabiy shakllangan, supersintaktik butunliklardan tashkil topgan, leksik-grammatik, mantiqiy, uslubiy jihatdan shakllangan, aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Har qanday matn ma'lum bir mazmunni tashish uchun xizmat qiladi, o'z xususiyatiga ko'ra turli axborotlarni yetkazadi. Matn nutq ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzulish va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki va yozma ijod namunasi hisoblanadi.²

"Matn" atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan *tekst* so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Ayni lug'atda *tekst* so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: 1. Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti. 2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi. Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yangi tahrirdagi izohli lug'atda ham ayni ta'kid saqlangan: matn [arabcha - yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi. Avvalo, aytish lozimki, kishilar o'rtasidagi aloqakommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan, matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash

¹ E.Qilichev Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, 2000; Yo'ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.

² Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. T., Fan, 1995.

shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi. Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliv sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'lolmaydi deyish to'g'ri bo'lmasligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqnigina matn deyiladigan bo'lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdagisinigina tan olish kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy.

To'g'ri, og'zaki nutqning so'zlangan paytidagina mavjud ekanligini, yozma nutqning esa zamon nuqtai nazaridan chegaralanmaganligini hech kim inkor etmaydi, ammo bu og'zaki nutjni eslash, xotirada saqlash, umuman, uni yoki uning muayyan parchalarini tiklash ilojsiz degani emas. Yaxlit og'zaki nutq faqat yozma shaklga olingandagina matn yuzaga keladi. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriysi va qonuniyatları borligi aytildi. Bundan tashqari dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning ko'pchiligidagi "diskurs" termini ham bot-bot qo'llanadi. Bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da, matn lingvistikasining o'zida ham yagona, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan talqini, ma'nosi yo'q, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab "diskurs" va "matn" terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyinroq "matn" yozma kommunikatsiyaga nisbatan, "diskurs" esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha *discours* - "nutq", "so'zlash" demakdir.

"Matn" atamasini "nutq", "kontekst" kabi boshqa lingvistik atamalardan

farqlanadi.

Nutq og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasini ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. Nutq sub'yeqtan adresatga yo'naltiruvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi. Matn esa faqat ob'yektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, balki o'ziga pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir. Ilmiy adabiyotlarda kontest atamasi nutqiy vaziyat mahsuli deb ko'rsatiladi. Kontest –bu bir leksik va gramma tik birlik asosida ifodalangan ma'no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzulgan minimal nutq birligi. Qoida bo'yicha bu so'z birikmasi, ba'zan gap, kamdan kam abzats yoki yaxlit matnga teng keladi. Ko'rindiki, kontekst so'zlarning semantik ma'nosi reallashadigan o'ziga xos maydon hisoblanadi.

Borliqning mavjud dalillari lug'atlarda berilganidek alohida so'zlarda, tugal xabarlarda, matnlarda, ularning minimal bo'lagi bo'lgan gaplarda aks etadi. So'zlar va ular ma'nolarining ong va borliqqa munosabati gap orqali bog'langan, gapdan tashqarida ular faqat potensial birlikdir xolos. Ularning vazifasi faqatgina butun bi mexanizm bilan aloqada tushuniladi.

Tilshunos olimlardan E.Qilichev matnga quyidagicha ta'rif beradi: "Matn hamma elementlari bilan o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilmadir". Tilshunos I.Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo'lib, u fikran va sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to'liq bo'ladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda. Biz matnning o'ziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunliklardan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamonda izchilligi, yaxlitligi, tugallanganligi, bir umumiyl mavzuga egaligi kabilarni tushunamiz. Matn ana shunday belgilarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ-sintaktik butunlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. T., Fan, 1995.
2. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, Sharq, 2000.
3. Yo'ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., Fan, 2007.
4. Ro'ziyev M. O'zbek va nemis tillarda fe'lning majhul nisbatining ifodalanishi //Экономика и социум – 2023 – №.7(110) – С. 276-278.
5. Ro'ziyev M. O'zbek va nemis tillarda fe'lning majhul nisbatining ifodalanishi //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2023. – С. 181-183.
6. Ro'ziyev M. O'zbek va nemis tillarda fe'lning majhul nisbatining ifodalanishi //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2023. – С. 181-183.
7. Ro'Ziyev M. O'zbek va nemis tillarda fe'lning majhul nisbatining ifodalanishi //Экономика и социум. – 2023. – №. 7 (110). – С. 276-278.
8. Ro'ziyev M. O'zbek va nemis tillarda fe'lning majhul nisbatining ifodalanishi //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2023. – С. 181-183.
9. Ro'ziyev M. Periods of the educational process and the technology of teaching based on them //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.
10. Roziyev M. Periods of the educational process and the technology of teaching based on them //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 06. – С. 207-211.
11. Qayumovich R. M. Periods of the educational process //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences. – 2021. – С. 195-201.
12. Ro'ziyev M. O'zbek va nemis tillarida shart maylininng berilishi //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2022. – С. 203-205.

13. Ro'ziyev M. Ta'lif jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixologik imkoniyatlari //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.
14. Ro'ziyev M. Ta'lif jarayonining uchinchi davri asosida nemis tili darslarini o'tish texnologiyasi //центр научных публикаций(buxdu. uz).– 2021.–Т.3–№. 3.
15. Ro'ziyev M. Didaktik hodisalar tizimiga zamonaviy yondashuv//Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
16. Qayumova, Nigora. "Dunyo Sonetchiligidagi Nazar" Центр Научных Публикаций (buxdu. uz) 41.41 (2023).
17. Qayumova, Nigora. "The Genre Sonnet in the Poesis of Shakespeare." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 32.32 (2023).
18. Qayumova, Nigora. "Formal and Contentual Coherence in the Sonnets of Rauf Parfi and Shakespeare." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).
19. Qayumova, Nigora. "The harmony of form and content in the sonnet." Центр научных публикаций (buxdu. Uz) 40.40 (2023).
20. Qayumova, N. (2023).Шекспир ва Рауф Парфи Сонетларида Бадиий Тасвир Воситаларининг Кўлланиши. Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 30(30). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9194
21. Qayumova, N.(2023).Ideology And Art Of William Shakespeare's Sonnets. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 2(8), 94–97. извлечено от <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/5514>
22. Qayumova, N.(2023).Dunyo Sonetchiligidagi Nazar. Центр Научных Публикаций(buxdu. uz), 41(41).
23. Qayumova, Nigora, and Raxmatova Mohinur."Techniques Used For Reading Skill Development" Образование Наука И Инновационные Идеи В Мире37.1(2024):67-69.
24. Qayumova, Nigora."The sonnet wreath in uzbek poetry." Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities.Vol 3.No.4.2024.